

## SUD DISKURSIDA ARGUMENTATSIYANING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi,

Renessans universiteti, Xorijiy filologiya kafedrası o'qituvchisi

[taxminanizomova@gmail.com](mailto:taxminanizomova@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18931967>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada sud diskursida argumentatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot sud nutqining institutsional tabiati, argumentativ strategiyalar hamda presuppozitsiya, implikatura, modallik va evidensiallik kabi pragmatik vositalarning rolini aniqlashga qaratilgan. Deskriptiv va pragmatik tahlil metodlari asosida sud nutqida qo'llaniladigan savol konstruktsiyalari va dalilni ifodalovchi lingvistik birliklar o'rganiladi. Natijalar sud diskursida argumentatsiya mantiqiy tuzilma bilan bir qatorda pragmatik mexanizmlar orqali ham shakllanishini ko'rsatadi. Tadqiqot sud nutqini lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish huquqiy kommunikatsiyani chuqurroq anglashga yordam berishini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** sud diskursi, argumentatsiya, lingvopragmatika, presuppozitsiya, implikatura, modallik, evidensiallik, nutq axtarlari, institutsional kommunikatsiya, diskurs tahlili, sud nutqi, pragmatik strategiyalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности аргументации в судебном дискурсе. Исследование направлено на выявление институциональной природы судебной речи, аргументативных стратегий, а также роли таких прагматических средств, как пресуппозиция, импликатура, модальность и эвиденциальность. На основе дескриптивного и прагматического методов анализа рассматриваются вопросительные конструкции и лингвистические средства выражения доказательств, используемые в судебной речи. Полученные результаты показывают, что аргументация в судебном дискурсе формируется не только посредством логической структуры, но и с помощью прагматических механизмов. Подчеркивается, что лингвопрагматический анализ судебной речи способствует более глубокому пониманию правовой коммуникации.

**Ключевые слова:** судебный дискурс, аргументация, лингвопрагматика, пресуппозиция, импликатура, модальность, эвиденциальность, речевые акты, институциональная коммуникация, дискурс-анализ, судебная речь, прагматические стратегии.

**Abstract.** This article analyzes the linguopragmatic features of argumentation in courtroom discourse. The study focuses on identifying the institutional nature of courtroom speech, argumentative strategies, and the role of pragmatic devices such as presupposition, implicature, modality, and evidentiality. Using descriptive and pragmatic analysis methods, the research examines question constructions and linguistic units expressing evidence in courtroom speech. The findings indicate that argumentation in courtroom discourse is shaped not only by logical structures but also by pragmatic mechanisms. The study emphasizes that linguopragmatic analysis of courtroom discourse contributes to a deeper understanding of legal communication.

**Keywords:** courtroom discourse, argumentation, linguopragmatics, presupposition, implicature, modality, evidentiality, speech acts, institutional communication, discourse analysis, courtroom speech, pragmatic strategies.

**Kirish.** Sud diskursi institutsional muloqotning eng qat'iy tartibga solingan shakllaridan biri bo'lib, unda nutq jarayoni protsessual rollar, vakolatlar va qonuniy me'yorlar bilan cheklanadi. Sud jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar — sudya, prokuror, himoyachi, guvoh va boshqa ishtirokchilar — oldindan belgilangan kommunikativ

maqomga ega bo'lib, ularning nutqiy harakatlari shu maqom doirasida amalga oshiriladi. Sud diskursining aynan mana shu institutsional xususiyati forensik lingvistika tadqiqotlarida keng yoritilgan[1].

Shu sababli suddagi argumentatsiya oddiy mantiqiy isbotlash jarayonidan ancha murakkab hodisa hisoblanadi. U faqat dalillarni ketma-ket sanab o'tish bilan chegaralanmaydi, balki auditoriya ongida muayyan talqin modelini shakllantirishga qaratilgan strategik kommunikativ faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, har bir bayonot illokutsion kuchga ega bo'lib, u axborot berish bilan birga muayyan harakatni amalga oshiradi[2]. Demak, sud argumentatsiyasini faqat mantiqiy konstruktsiya sifatida emas, balki pragmatik harakatlar tizimi sifatida talqin qilish zarur. Forensik lingvistika yoki sud lingvistikasi va "til va huquq" yo'nalishidagi tadqiqotlar sud jarayonidagi tilni faktlarni shakllantiruvchi va qonuniylashtiruvchi vosita sifatida ko'radi. Sudda kim gapirayotgani, qaysi janrda nutq amalga oshirilayotgani va savolning shakli argumentning ta'sir kuchiga bevosita ta'sir qiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Sud diskursida argumentatsiyaning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun deskriptiv va pragmatik tahlil metodlari qo'llanadi. Deskriptiv tahlil sud nutqida uchraydigan argumentativ birliklar hamda lingvistik vositalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Deskriptiv tahlil sud diskursida argumentatsiyani ifodalovchi lingvistik birliklarning real nutqdagi namoyon bo'lish shakllarini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvda sud nutqida qo'llaniladigan savol konstruktsiyalari, modallik birliklari va dalilni ifodalovchi til vositalari tasviriy tarzda tahlil qilinadi. Masalan, sud jarayonida prokuror tomonidan berilgan quyidagi savolni ko'rib chiqish mumkin:

*"Siz voqea sodir bo'lgan paytda ayblanuvchi bilan birga bo'lganingizni tasdiqlaysizmi?"* Mazkur savolda presuppozitsiya mavjud bo'lib, unda guvohning ayblanuvchi bilan birga bo'lgani haqidagi ma'lumot oldindan qabul qilingan holat sifatida ifodalanadi. Deskriptiv tahlil ushbu savol konstruktsiyasining lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi. Savol tarkibida *tasdiqlaysizmi* fe'l shakli orqali guvohdan ma'lumotni tasdiqlash talab qilinadi, bu esa argumentning ma'lum bir talqinini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yana bir misol sifatida sud qarori matnidagi quyidagi konstruktsiyani ko'rish mumkin: *"Sud materiallarini o'rganish natijasida ayblanuvchining aybi dalillar bilan tasdiqlanishi aniqlanadi."* Bu gapda argumentatsiya evidensial birliklar orqali ifodalanadi. "Dalillar bilan tasdiqlanishi aniqlanadi" kabi birliklar sud qarorida dalilning rasmiy va qonuniy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Deskriptiv tahlil bunday konstruktsiyalarning sud diskursida tez-tez uchrashini va ularning argumentning ishonchliligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Pragmatik tahlil sud nutqida til birliklarining kommunikativ maqsadi va yashirin ma'nosini aniqlashga qaratiladi. Pragmatik tahlil sud nutqida *presuppozitsiya, implikatura*

va *modallik* kabi lingvistik vositalarning argumentatsiyadagi rolini tushuntirish imkonini beradi. Presuppozitsiya gap ichida oldindan qabul qilingan ma'lumotni bildiruvchi pragmatik hodisa sifatida talqin qilinadi[3]. *Implikatura* esa nutq kontekstidan kelib chiqib auditoriya tomonidan chiqariladigan yashirin xulosani anglatadi[4]. Masalan, quyidagi savolni ko'rib chiqish mumkin: "*Siz qachon voqea joyini tark etishga qaror qildingiz?*" Bu savolda presuppozitsiya mavjud. Savol shakli guvoh voqea joyini tark etganini oldindan qabul qilingan fakt sifatida ifodalaydi. Natijada guvoh javob berish jarayonida ushbu presuppozitsiyani inkor etish yoki tasdiqlash holatiga tushadi. Bu esa argumentning talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pragmatik tahlil implikatura hodisasini ham ko'rsatadi. Masalan: "*Siz voqea paytida juda uzoq masofada bo'lganingizni aytyapsiz, shundaymi?*" Bu savolda ochiq ayblov mavjud emas, biroq implikatura orqali guvohning ko'rsatmasi ishonchliligi shubha ostiga qo'yiladi. Auditoriya kontekst asosida guvoh voqeani aniq ko'rmagan bo'lishi mumkin degan xulosaga keladi.

Modallik birliklari ham pragmatik jihatdan muhim hisoblanadi. Masalan: "*Mazkur dalillar ayblanuvchining jinoyatda ishtirok etgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.*" Bu gapda "mumkin" modallik birligi ehtimollikni bildiradi. Bu esa sud nutqida argumentni ehtiyotkor shaklda ifodalashga yordam beradi.

**Natijalar.** Tahlil natijalari sud diskursida argumentatsiya ko'pincha pragmatik mexanizmlar orqali shakllanishini ko'rsatadi. Presuppozitsiya sud nutqida muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Presuppozitsiyali savollar guvoh yoki ayblanuvchini muayyan talqin doirasiga yo'naltiradi hamda ayrim faktlarning oldindan qabul qilinishiga sabab bo'ladi[5].

Implikatura ham sud argumentatsiyasida muhim rol o'ynaydi. Sud nutqida implikatura orqali ochiq ayblov berilmasdan turib auditoriyada muayyan xulosa shakllanadi. Bunday strategiya guvoh ishonchliligini shubha ostiga qo'yish yoki qarama-qarshi tomon argumentini zaiflashtirishda qo'llanadi.

Epistemik modallik birliklari ham sud diskursida muhim rol o'ynaydi. "*Ehtimol*", "*ko'rinadiki*", "*aniqlanishicha*" kabi modallik birliklari argumentning ishonchlilik darajasini ifodalaydi[6]. Ingliz sud diskursida ehtimollikni bildiruvchi birliklar ko'proq uchrasa, o'zbek sud diskursida normativ va rasmiy formulalar ustunlik qiladi.

Shuningdek, evidensiallik birliklari — ya'ni dalil manbasini ko'rsatuvchi lingvistik vositalar — argumentning asosliligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ekspert xulosasi, guvoh ko'rsatmasi yoki hujjatli dalillarga murojaat qilish argumentning ishonchliligini oshiradi[7].

**Muhokama.** Olingan natijalar sud diskursida argumentatsiya murakkab kommunikativ jarayon sifatida shakllanishini ko'rsatadi. Sud jarayonida argumentlar faqat mantiqiy dalillash asosida qurilmaydi, balki turli pragmatik mexanizmlar yordamida kuchaytiriladi. Argumentatsiyaning mantiqiy tuzilishini tushuntirishda Toulmin modeli

muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur modelga ko'ra argument da'vo (*claim*), dalil (*data*) va kafolat (*warrant*) kabi komponentlardan tashkil topadi. Shu bilan birga, sud nutqida ushbu komponentlarning samaradorligi ko'pincha lingvopragmatik vositalar orqali namoyon bo'ladi[8].

Sud diskursida presuppozitsiya, implikatura va modallik kabi lingvistik birliklar argumentning kommunikativ ta'sirini kuchaytiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Presuppozitsiya orqali muayyan fakt yoki vaziyat nutqda oldindan qabul qilingan ma'lumot sifatida ifodalanadi. Natijada auditoriya muhokama qilinayotgan hodisani muayyan talqin asosida qabul qilishga moyil bo'ladi. Implikatura esa nutqning yashirin ma'nosini shakllantirib, sud jarayonidagi ishtirokchilar uchun muayyan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi. Bunday lingvistik vositalar argumentning bevosita emas, balki bilvosita shaklda ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

Modallik birliklari ham sud nutqida argumentning ishonchlilik darajasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Epistemik modallik birliklari muayyan fikrning ehtimollik darajasini ko'rsatib, auditoriya tomonidan qabul qilinish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sud qarorlarida yoki advokat nutqida ehtimollikni bildiruvchi birliklar orqali dalillar ehtiyotkor va muvozanatli tarzda ifodalanadi. Bu esa sud nutqining rasmiy va institutsional xususiyatlarini yanada kuchaytiradi.

Sud diskursining institutsional tabiati ham argumentatsiya jarayonining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Sud jarayonida nutq qat'iy protsessual qoidalarga bo'ysunadi hamda har bir ishtirokchi o'z kommunikativ rolga ega bo'ladi. Sudya, prokuror, advokat va guvoh kabi ishtirokchilarning nutqiy harakatlari turli kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Shu sababli sud diskursida qo'llaniladigan lingvistik vositalar ham ushbu institutsional kontekst bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, sud diskursida nutq tuzilishi ko'pincha savol-javob shaklida tashkil topadi. So'roq jarayonida savollar argumentni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Savol konstruksiyasi orqali guvohning javobini ma'lum talqin doirasiga yo'naltirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, savol shaklining o'zi ham muayyan presuppozitsiyani o'z ichiga olishi mumkin. Natijada sud nutqida argumentatsiya jarayoni savolning lingvistik tuzilishi orqali ham shakllanadi.

Diskurs va hokimiyat munosabatlari ham sud argumentatsiyasining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Tanqidiy diskurs tahlili nuqtai nazaridan qaraganda, sud nutqida hokimiyat munosabatlari til orqali ifodalanadi. Sudya va prokuror kabi institutsional vakolatga ega subyektlar nutq jarayonini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa argumentlarning qabul qilinishi va talqin qilinish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Til orqali ifodalangan hokimiyat munosabatlari argumentning legitimligi va asosliligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi[10].

**Xulosa.** Sud diskursida argumentatsiya murakkab lingvopragmatik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Sud jarayonida qo'llaniladigan argumentlar faqat mantiqiy dalillar

tizimiga asoslanmaydi, balki turli pragmatik vositalar orqali kuchaytiriladi. Presuppozitsiya, implikatura, modallik hamda evidensiallik kabi lingvistik birliklar argumentning kommunikativ ta'sirini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

Sud diskursining institutsional tabiati argumentatsiya jarayonining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Sud jarayonida nutq qat'iy protsessual qoidalar asosida tashkil topadi va har bir ishtirokchi muayyan kommunikativ rolga ega bo'ladi. Shu sababli sud nutqida qo'llaniladigan lingvistik vositalar ham institutsional kontekst bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Sudya, prokuror, advokat va guvoh nutqidagi kommunikativ strategiyalar argumentning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari sud diskursini o'rganishda lingvistik va pragmatik yondashuvlarning birgalikda qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Argumentatsiya jarayonini to'liq tushunish uchun nutqning mantiqiy tuzilishi bilan bir qatorda uning kommunikativ konteksti, ijtimoiy omillari hamda diskursiv xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Shuningdek, sud diskursida til nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiy va institutsional ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Til orqali dalillarni talqin qilish, muayyan xulosalarni asoslash va auditoriyani ishontirish imkoniyati yuzaga keladi. Shu sababli sud diskursini lingvopragmatik nuqtai nazardan o'rganish huquqiy kommunikatsiya jarayonini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gibbons, J. (2003). *Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System*. Oxford: Blackwell Publishing.
2. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford University Press.
3. Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
4. Grice, H. P. (1975). Logic and Conversation. In *Syntax and Semantics* (Vol. 3).
5. Mey, J. (2001). *Pragmatics: An Introduction*. Blackwell.
6. Heffer, C. (2005). *The Language of Jury Trial*. Palgrave Macmillan.
7. Walton, D. (2006). *Fundamentals of Critical Argumentation*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. van Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. New York: Palgrave Macmillan.
9. Coulthard, M., Johnson, A., & Wright, D. (2017). *An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence*. 2nd ed. London: Routledge.
10. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Tiersma, P., & Solan, L. (2012). *The Oxford Handbook of Language and Law*. Oxford: Oxford University Press.
11. Nizomova Taxmina Jamoliddin qizi. (2025). Sud diskursida interaktivlik va institutlararo muloqot. Zamonaviy tilshunoslik istiqbollari: muammolar va yutuqlar mavzusida xalqaro ilmiy amaliy anjuman, 1(6), 161–165. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15590339>